

**UMUMTA'LIM MAKTABLARI DIREKTORLARINING UZLUKSIZ KASBIY RIVOJLANISHINING O'ZIGA XOS MUAMMOLARI VA ISTIQBOLLARI***Rajabov Kozim Komil o'g'li**A.Avloniy nomidagi pedagogik**mahorat milliy instituti xodimi +998 99 113 15 08*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada umumta'lim maktab direktorlarining kasbiy rivojlanish hamda malaka oshirishlarini tashkil etishdagi muammolar, xorijiy tajribalar hamda bu sohaning istiqbollari haqida fikr yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** ta'lim, malaka oshirish, boshqaruv, maktab, direktor.

Prezidentimizning 2020-yil 6-noyabrda qabul qilingan "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlariga o'g'risida"gi farmoni va sohaga oid bir nechta qarorlarida xalq ta'limi tizimidagi islohotlarni yanada takomillashtirish hamda ilmiy jihatdan qo'llab-quvvatlash bo'yicha aniq vazifalar belgilab berildi. Mazkur hujjatlarda xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish bilan bog'liq masalalarga ham alohida e'tibor qaratilib, sohadagirahbar va pedagog-xodimlarni "hayot davomida o'qish" tamoyili asosida uzluksiz malaka oshirish tizimiga transformatsiya qilish vazifasi qo'yildi. Joriy yilgacha amaldagi tartibga ko'ra, pedagog-kadrlar har 5 yilda kamida 1 marta, rahbar va mutaxassis xodimlar esa har 3 yilda kamida 1 marta malaka oshirib kelgan. O'qituvchining 5 yilda 1 oy, ya'ni 144 soatlik o'quv dasturi asosida malaka oshirish va qolgan 4 yilu 11 oy hech qanday o'quvga jalb qilinmasligi ularning o'z ustida ishlamasligi, katta hajmdagi ta'limiy axborotlardan bahramand bo'lmasligiga olib kelgan. Shu bois, bizda ham soha xodimlarini davriy emas, balki doimiy ravishda o'qitib borish, malaka oshirishni xodimlarning kasbiy ehtiyojidan kelib chiqib tashkilotish dolzarb masalaga aylanib qoldi.

Bugungi kunda ta'lim tizimida faoliyat yuritayotgan mutaxassislar oldida vazifalar talaygina. Shunga yarasha maqsadlar ham ulkan. Xalqaro hamkorlikni kuchaytirish, bor imkoniyatdan samarali foydalangan holda pedagoglar uchun sifatli, mukammal ma'lumotlar bazasini yaratib olish asosiy maqsaddir. Malaka oshirish tizimini zamonaviy AKT imkoniyatlaridan foydalangan holda tashkil qilinayotgan pedagoglarga avvalo qulaylik yaratishga, malaka oshirish tizimida yillar davomida pedagoglarni qiynab kelgan turli muammoli holatlarni oldini olishga xizmat qiladi.

Bugungi kunda xalqaro munosabatlarning rivojlanish jarayoni shuni yaqqol ko'rsatadiki, hamkorlikning asosiy shakli sifatida sheriklarni o'rnatish hamda malaka oshirish tizimlarini modernizatsiya qilish bo'yicha xorijiy tajribani o'rganish juda dolzarb vazifaga aylanmoqda. Zamonaviy maktab rahbari nafaqat kadrlar menejmenti, pedagogik bilimlar, ta'lim sohasidagi davlat siyosatini tushunish, ayrim shaxsiy fazilatlar, balki iqtisodiyot, voyaga yetmaganlar va ta'lim huquqshunosligi, menejment sohasidagi bilimlarga ega bo'lishi kerak. Bugungi kunda maktab direktorlari o'zini natijaga yo'naltirilgan menejer sifatida ko'rishni maqsad qilishmoqda. Bo'lajak rahbar xodim chet el davlatlarining bu taribalarini o'rgansa va o'z amaliyotiga tatbiq etsa, uning jamoasida o'sish bo'ladi. Ya'ni, malaka oshirish ta'limi mazmunini mustaqil o'zlashtirishga mo'ljallangan mustaqil birliklarga (modullarga) ajratish lozim bo'ladi. Modullardan iborat bo'lgan malaka oshirish ta'limi mazmunini zamonaviy axborot texnologiyalarining imkoniyatlaridan unumli foydalangan holda tinglovchi sifatida qayd etilgan xodimlarga yetkazib berish va ular tomonidan qulay vaqt hamda muddatlarda mazkur mazmunni o'zlashtirilishi

malaka oshirishda zamonaviy yondashuvlar imkoniyatlaridan foydalanishning asosiy mohiyatini tashkil qiladi.

Natijada malaka oshirish ta'lim muassasalaridagi ta'lim jarayonlarini tashkil etishda tinglovchilarning ehtiyojlarini e'tiborga olish imkoniyatlari kengaydi, tinglovchilar talabiga ko'ra bir fan modulini ikkinchi modul bilan almashtirish va umuman malaka oshirish dasturini davlat talablari doirasida tinglovchilar (yoki buyurtmachi muassasalar) xohlagan fan modullaridan shakllantirish imkoniyati tug'ildi.

Shuningdek, har bir xodimning o'z shaxsiy dasturi bo'yicha malaka oshirishini monitoring qiluvchi va malaka oshirish natijalarini o'zida jamlab boruvchi maxsus dasturiy platformani ishlab chiqilishi hamda amaliyotga joriy etilishi talab qilinadi. Xodimga malaka oshirish dasturini o'z kasbiy ehtiyojlaridan kelib chiqib shakllantirishdan tashqari mazkur dasturni o'zlashtirishda malaka oshirishning turli (malaka oshirish ta'lim muassasida o'qish, masofadan o'qish, mustaqil o'zlashtirish) shakllaridan o'ziga qulay tarzda foydalanish imkoniyati beriladi. Umumiy o'rta ta'lim maktablari rahbarlarining ko'pchiligining kasbiy tayyorgarligi zamonaviy ta'lim ehtiyojlariga mos kelmaydi. "Hayotiy tajriba"ga asoslangan an'anaviy maktab boshqaruvi ko'pchilik rahbarlarning stereotiplardan uzoqlashishiga imkon bermaydi. Shuning uchun maktab rahbarlarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish muammosi ustuvor vazifaga aylanadi. Dunyoning barcha mamlakatlarining o'zaro aloqasi va o'zaro bog'likligi kengayib va chuqurlashib barayotgan bir sharoitda, O'zbekistondagi pedagog kadrlarning malakasini oshirish tizimini rivojlanishini jahon ta'lim makonini rivojlantirish jarayonlaridan ajralgan holda o'rganib bo'lmaydi. Malaka oshirish Yevropaning deyarli barcha davlatlarida va mintaqalarida o'qituvchilarning majburiyati hisoblanadi.

Biroq, hamma joyda ham ushbu ma'suliyatni belgilaydigan me'yoriy-huquqiy baza mavjud emas. Jumladan, Gollandiya, Shvetsiya, Frantsiya, Islandiyada kasbiy malaka oshirish o'qituvchilarning vazifasi deb e'lon qilingan, Polsha, Slovakiya, Sloveniya, Ispaniya va Lyuksenburgda mutassil malaka oshirish ixtiyoriydir, ammo tadqiq etilmasa, u lavozim hamda ish haqiga ta'sir qiladi. Ispaniyada ma'lum bir o'qish kursiga ro'yxatdan o'tgan o'qituvchilar qo'shimcha ish haqi oladilar. Yigirmanchi asrning 60-yillarida AQSHda, boshqa mamlakatlarga qaraganda avvalroq, ijtimoiy va texnik taraqqiyot, avvalo, odamlarning o'ziga ularning qanday o'qitilgani va tarbiyalanganiga – boshqacha qilib aytganda, maktabning qanday ishlashiga va o'qituvchining kasbiy mahoratiga bog'liqligini anglatadi. Yigirmachi asrning 80-yillarida o'qituvchilar malakasini oshirish sohasidagi Amerikalik mutaxassillar mohir o'qituvchi nafaqat pedagog texnologiyalarni puxta bilishi, balki shaxsiy, axloqiy, intellektuell, ijtimoiy ahamiyatga ega yuqori fazilatlariga ega bo'lishi kerak degan tushunchaga kelishdi.

Maktab bugungi kunda ta'lim tizimining tarkibiy qismi va malaka oshirish tizimining ajralmas bo'g'ini sifatida uning rivojlanishiga avvalgiga qaraganda ko'proq ta'sir ko'rsatmoqda. Maktab o'qituvchilarning malakasini oshirish asosida amalga oshiriladigan, o'sha hudud ahamiyatiga ega bo'lgan yo'nalishdir. Asosiy muassasalar sifatida noan'anaviy shakllar, metodlar va usullardan foydalangan holda ma'lum bir uslubiy yoki boshqaruv muammosini hal qilish bilan shug'ullanadigan maktablarni tanlashadi. Finlyandiyada rahbarlar va o'qituvchilar boshqarish usullari hamda o'qitish amaliyoti bo'yicha yaxshi tayyorgarlikka egalar. Demak, ular zamonaviy tashxis ko'nikmalariga ega mutaxassislar bo'lib, jamoaviy tarzda o'qitilayotgan fan va o'qituvchilarning talablariga javob beradigan mashg'ulotlar o'tkazish uchun birgalikda harakat qilishadi.

So'nggi yigirma yil ichida maktab rahbarlarining kasbiy tayyorgarligi darajasining oshishi bilan birga o'qituvchilarning malakasini oshirishni qo'llab-quvvatlash sifati ham yaxshilandi. Majburiy, an'anaviy ishlab chiqarish mashg'ulotlarining aksariyati barham topdi. Ularning o'rniga:

- uzoq muddatli dasturlar (ixtisoslashtirilgan dasturlar bo'yicha malaka oshirishning asosiy muassasalari - universitetlar, institutlar, akademiyalar va o'quv markazlari, maktablar, kattalar ta'lim muassasalari);

- ta'lim muassasasi yoki munitsipalitet negizida kasbiy rivojlanish (o'qituvchilar har hafta birgalikda ishlaydilar, darslarni birgalikda rejalashtiradilar, bir-birlarining darslarida qatnashadilar va bir- birlarini rivojlantirishga yordam beradilar yoki bir munitsipalitetda joylashgan maktablarning birgalikda ishlashini ta'minlash va materiallar bilan almashish choralari ko'riladi, natijada, ilg'or tajribalar butun tizimga tez tarqaladi, joriy qilinadi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Djurayev.R.X. Ta'lim menejmenti. Toshkent. "Voriz Nashriyoti". 2006.
2. Axliddinov R. Maktabni boshqarish san'ati. – T.: - "Fan" nashriyoti. 2006.
3. Maxmudov I.I. Boshqaruv psixologiyasi: O'quv qo'llanma / Mas'ul muharrir: A.Xolbekov. – T.: DJQA "Rahbar" markazi; "Yunaks-Print" MChJ, 2006.
4. Yo'ldoshev J.G'., Usmonov S.A. Ta'lim menejmenti // O'qituvchi, - 2007. – B. 9.